

# Prezident Qozog'istonga jo'nab ketdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 5-dekabr kuni davlat tashrifi bilan Nur-Sulton shahriga jo'nab ketdi.

Oliy darajadagi muzokaralarda O'zbekiston-Qozog'iston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilinadi. Ko'p qirrali, eng avvalo savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-logistikka va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Tashrif yakunida hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan ko'plab hujjatlar imzolanishi rejalashtirilgan.



**Manba**